

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
<b>B.Q.Qurbanova</b>	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar ....	22
<b>S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov</b>	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni .....	27
<b>G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova</b>	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
<b>Sh.A.Ro'zaliyev</b>	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishlash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari .....	40
<b>A.R.Abdullayeva</b>	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili .....	43
<b>N.U.Alijonov</b>	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
<b>M.Y.Atadjanov</b>	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili .....	54
<b>N.N.Ahmadjonov</b>	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
<b>M.A.Djalalova</b>	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili .....	65
<b>N.A.Ergasheva</b>	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
<b>Sh.K.Mamajonova</b>	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish .....	73
<b>D.M.Mo'minov</b>	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish .....	81
<b>D.M.Nuralieva</b>	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	87
<b>R.S.Nuriddinov</b>	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
<b>M.J.Rajabov</b>	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili .....	96
<b>F.S.Soliyev</b>	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
<b>Sh.A.Usmonov</b>	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli .....	106
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari .....	111
<b>G.S.Yunusova</b>	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili .....	116
<b>M.S.Zakirova</b>	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni .....	121
<b>H.A.G'anieva</b>	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
<b>Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов</b>	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA .....	134



UO'K: 641.3563.12471

**O'ZBEK OILALARIDA OILA QURISH MOTIVLARINI O'RGANISHDA EMPIRIK TADQIQ  
ETILGANLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI**

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMPIRICAL RESEARCH IN THE  
STUDY OF FAMILY BUILDING MOTIVES IN**

**SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE HUSBAND IN PROVIDING  
PSYCHOLOGICAL SERVICES TO THE FAMILY**

Nuralieva Dildora Mamurjonovna

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD), dotsent

**Annotatsiya**

*O'iladagi qulaylilik bo'lishi uchun oila a'zolarini psixologik xususiyatlarini oilani birligiga qaratilishi. Buning uchun oila a'zolarini o'zaro muloqatda, ehtiyojlarini qondirishda bir-biridan ma'suliyatni talab qilish. Bu albatta guruhiy bosimni vujudga keltiradi. Bular natija sifatida xar bir oila a'zosini oila birligiga ta'sir etuvchi modellarni shakllanishiga va oila a'zolarini shu modeldan kelib chiqqan holda o'zgarib borishiga olib keladi.*

**Аннотация**

Ориентация психологических особенностей членов семьи на единство семьи для комфорта в семье. Для этого требовать друг от друга ответственности в удовлетворении потребностей членов семьи. Это определенно создаст давление со стороны сверстников. В результате у каждого члена семьи формируются модели, влияющие на ячейку семьи, и члены семьи меняются на основе этой модели.

**Abstract**

*Focusing the psychological characteristics of family members on the unity of the family for comfort in the family. For this, to demand responsibility from each other in meeting the needs of family members. This will definitely create peer pressure. As a result, each family member forms models that affect the family unit and family members change based on this model.*

**Kalit so'zlar:** Oilaga psixologik xizmat, oila, munosabatlar, shaxs, neyrofiziologiya, oilaviy diagnostika, qabilaviy munosabatlarni, kichik guruh, psixologik mexanizmlari

**Ключевые слова:** Семейная психологическая служба, семья, отношения, личность, нейрофизиология, семейная диагностика, родоплеменные отношения, малая группа, психологические механизмы.

**Key word:** Family psychological service, family, relationships, personality, neurophysiology, family diagnostics, tribal relations, small group, psychological mechanisms

**KIRISH**

Oila oldida turgan muammo va uni hal qilish, buning uchun sharoitni vujudga keltirish muhim hisoblanadi. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning mexanizmlari bu o'ziga xos murakkab ko'rinishga ega jarayondir. Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy- psixologik mexanizm tushunchasini bir qancha talqinlari mavjud. Bu tushunchani chet el psixologiyasida va xozirgi zamon psixologiyasida bir xil talqini uchramaydi. Ijtimoiy-psixologik mexanizm va psixologik mexanizm tushunchalari o'tasida printsipial farqlar mavjuddir. K.A.Arjanova, mazkur jarayonni uchta sharoitda tashkil qilgan holda amalga oshirishni ko'rsatib o'tgan. Bular:

-konformlik (psixikani xususiyati);

-guruhiy bosim (maxsus tashkil qilingan sharoit, stimul);

-individni xulq-atvorinini natija sifatida o'zgarishi (Arjanova K.A. [41]). Bu jarayon oilaga psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida aynan mos keladi. Oilada konformlik (qulaylilik) ta'minlangan bo'lishi uchun oila a'zolarini psixologik xususiyatlarini bilgan holda oilani birligiga qaratilishi, buning uchun oila a'zolarini o'zaro muloqatda, ehtiyojlarini qondirishda bir-biridan ma'suliyatni talab qilishi ko'rsatiladi. Bu albatta guruhiy bosimni vujudga keltiradi. Bularning natijasi sifatida har bir oila a'zosini oila birligiga ta'sir etuvchi modellarni shakllanishiga va oila a'zolarini shu modeldan kelib chiqqan holda korrektiyasini amalga oshirish taklif etiladi.

Oila va oilaga psixologik xizmat o'ziga xos mexanizmlarni shakllantirish maqsadida "Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish modeli" ishlab chiqilgan bo'lib quyida nazariy jihatdan izohlab berilgan bo'lib sxemasi (1 ilovada keltirilgan). Oiladagi krizis va uni bartaraf etish uchun psixolog o'ziga xos izlanishlarni olib boradi. Bu yerda oila va psixolog o'ttasida bo'ladigan amaliy jarayonlar muhim hisoblanadi. Agarda, oilaga psixologik xizmat ko'rsatish keng ko'lamlı tushuncha ekanligini inobatga olsak, xizmat ko'rsatish amaliyotida birinchi qadam doirasida oiladagi shaxslararo munosabatlarni ijtimoiy dinamikasini belgilab olishni taqozo etadi. Buning uchun, tadqiqot vositasi sifatida metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Olingan ma'lumotlarning tahlili bo'yicha munosabatlarning (oilaviy muhit, vaziyat, sharoit)ni uchta guruhga ajratish lozim bo'ladi. Bular:

- munosabatlar ijobiy;
- munosabatlar o'zgaruvchan;
- munosabatlar salbiy.

Ikkinci qadam doirasida, korreksiya o'tkazish uchun dastur va psixotexnikalarni tanlash talab etiladi. Agarda, ajrashayotganlarni vaqtini hamda psixologik xizmat olishga bo'lgan munosabatlarini inobatga olsak, bu jarayon juda murakkab kechadi. Shuning uchun, psixologda diagnostik, prognostik kompetentsiyalar shakllangan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy psixologik mehanizm tushunchasi XX asrning oxirlarida V.N. Voronin, V.G. Krisko, G.M. Andreeva, G.V. Dovjin, M.V. Iontsevlar tamonidan fanga kiritildi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Ijtimoiy psixologik mehanizm tushunchasini quyidagi psixolog olimlar o'rganib o'z fikrlarini aytib o'tdilar. Bular V.N. Varonin, M.V. Iontseva, G.V. Dovnik, O.O. Siderevalardir. Ularning fikiricha ijtimoiy-psixologik mehanizmlar o'ziga xos maxsus tashkil qilingan sharoitlar sifatida ko'rinish, insonni jamiyatdagi hulq-atvoriga maqsadga yo'naltirilgan holda ta'sir etish jarayonidir.[59] Bu jarayonning natijasi sifatida shaxsni guruhdagi yoki bir butun guruhdagi effektiv shakllanayotgan xulq-atvor modeli hisoblanadi. [59] Bunday yondoshishda quyidagi omil muhim hisoblanadi, ya'ni muloqatni amalga oshirayotgan alohida individ yoki guruhdagi individlar hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy-psixologik mehanizm tushunchasini bir qancha talqinini ko'rib chiqadi. Hozirgi vaqtida ijtimoiy-psixologik mehanizmi bir xil talqini uchramaydi.

Ijtimoiy-psixologik mehanizm va psixologik mehanizm tushunchalari o'ttasida printsiplar farqlar mavjuddir.

V.N.Varonin, M.V.Iontseva, G.V.Dovnik, O.O.Siderovalarning fikricha ijtimoiy-psixologik mehanizmlar o'ziga xos maxsus tashkil qilingan sharoitlar sifatida ko'rinish, insonni jamiyatdagi xulq-atvoriga maqsadga yo'naltirilgan holda ta'sir etish jarayonidir. Bu jarayonning natijasi sifatida shaxsni guruhdagi yoki bir butun guruhni effektiv shakllanayotgan xulq-atvor modeli hisoblanadi.

Bunday yondashishda quyidagi omil muhim hisoblanadi, ya'ni muloqotni amalga oshirayotgan alohida olingan shaxsni ishtirokini emas, balki shaxsni sotsiumdagi ishtirokini muhimligini ko'rsatib o'tadilar.

Ijtimoiy psixologiyada katta va kichik guruhlarni o'rganishda quyidagi ijtimoiy jarayonlarni o'rgandilar. Bular ijtimoiy fasilitatsiya, identifikatsiya, ijtimoiy ta'sir, taqlid qilish, xulq-atvor reaktivligi, yuqish va shuningdek shaxsni xususiyatlarini o'rganuvchi umumpsixologik kategoriyalar konformizm, motivlar, refleksiyalarni o'rganadi.

Oilaga psixologik xizmat bilan bog'liq jarayon ham xuddi shuningdek ko'rinishga ega bo'lgan jaroyondir. Oila oldida turgan muammo va uni hal qilish, buning uchun sharoitni vujudga keltirish muhim hisoblanadi. Bu mualliflarni yuqorida keltirgan misoli haqida gapirib K.A. Arjanova ular bu jarayonni uchta sharoitda tashkil qilgan holda amalga oshirishlari haqida ko'rsatadi. Bular birinchidan-konformosty (psixikani xususiyati), ikkinchidan – guruhiy bosim (mahsus tashkil qilingan sharoit, stimul), uchinchi – individni xarakat modelini natija sifatida o'zgarishi.[41 (B.263-273.)] Bu jarayon oilaga psixologik xizmatda ham aynan ko'rindi. Olimlar bu yerda sun'iy sharoitni vujudga keltirishga qattiq diqqatni qaratganlar. Bunda ma'lum bir predmetlar mehanizm sifatida amal qiladi va ma'lum bir natijani olish uchun atrofqa ta'sir o'tkazadi. Oila va oilaga psixologik xizmat o'ziga xos mexanizmlarni shakllantiradi. Oiladagi krizis va uni bartaraf etish uchun psixolog o'ziga xos izlanishlarni olib boradi. Bu yerda oila va psixolog o'ttasida bo'ladigan amaliy jarayonlar muhim hisoblanadi.

Psixolog o'z xizmatini ko'rsatish uchun yaxshi bilimga va amaliy tajribaga ega bo'lishi zarur. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish uchun uni ijtimoiy - psixologik qirralarini va individual psixologik tamonlarini birgalikda ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Oilani kichik ijtimoiy – psixologik

## PEDAGOGIKA

guruh sifatida o'rganishda oiladagi muloqat va undan kelib chiqadigan ijobjiy va salbiy munosabatlar hisoblanadi. Oila ijtimoiy - psixologik guruh sifatida oilaga va insonlarga xos bo'lgan ma'nnaviyatni o'zlashtirgan bo'lisi, o'zaro muloqat qoidalariga, diniy, milliy va umuminsoniy talablarga javob bera olishi kerak bo'ladi. Oilaga psixologik xizmatning psixologik mexanizmlari ijtimoiy psixologik tamonlardan farqlanib turadi. Psixologik mexanizmning muhim xususiyati bu inson psixikasining xususiyati bo'lib, u neyrofiziologiya bilan, inson miyasining tuzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Uning shakllanishiga inson psixikasining kerakli xususiyatlari shuningdek unga ta'sir etuvchi atrof – muhitni muhim sharoitlarini tashkil qilib ta'sir etish zarurdir. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda oila a'zolarining individual psixologik xususiyatlari kirib ketadi.

Oila psixologik xizmat ko'rsatishda ijtimoiy-psixologik va individual psixologik mexanizmlarni o'rni va ahamiyati kattadir. SHuni aytি joyizki mexanizm-bu hodisalarni bir butun holda xarakatga keltiruvchi, qismrlarning birligini tashkil etuvchi jarayondir. Bunda oilaga psixologik xizmat qiluvchi ijtimoiy- psixologik va individual psixologik omillar nazarda tutiladi. Ular kirizisli oilalarni me'yorlashtirishda yordam beradi.


Oila haqida ko'plab ta'riflar berilganiga qaramay Stolyarenko L.D., Samigin S.I. larning bergan ta'riflari ilmiy tadqiqot ishi uchun qiziq hisoblanadi: "Oila– bu odamlarni ijtimoiy guruhi bo'lib, u oilaning xar bir a'zosini o'zini saqlashi, o'zini ko'rsatishi, o'zini hurmatini qondirishga qaratilgan ehtiyojlar hisoblanadi" [146] Ya'ni yuqorida ko'rsatilgan uchta jarayonni boshidan kechiradi.

Psixologik xizmat va psixologik amaliyotda oilaviy psixoterapiya oilalarga maslahat berish jarayonida ahamiyat qaratishi lozim bo'lgan muhim bosqich sifatida ko'riladi. Bunda:

- er va xotinlarga o'z orzu-niyat, his-tuyg'u, ideal, qadriyat, havotir, kechinma va h.k.lari yuzasidan mulohazalarini ochiq bayon etish, ya'ni muloqotga kirishish malakalarini rivojlantirishni;
- er va xotin muloqotining yangidan–yangi usullarini tarkib toptirishni;
- er va xotin, oilaviy hayotga doir dogmatik tasavvur va stereotiplardan xoli bo'lishni;
- er va xotinlik rol (maqom) larini o'zlashtirishlariga yordam berishni;
- er va xotin hamkorlikda, birdamlik tuyg'ularini rivojlantirishni ta'minlashi kerak bo'ladi (Shoumarov G.B., Qodirov U.D. [170, B.8]).

## NATIJA VA MUHOKAMA

Oilada psixologik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, vazifalar ko'laminib belgilab olish uchun ajralish arafasida turgan o'zbek oilalarida turmush qurish motivlarini o'rganish lozim deb hisoblaymiz. Buning uchun anketa so'rovidan foydalanamiz. (3.1.1-rasm).



**3.1.1-rasm. Sinaluvchi jinsi. Ijtimoiy so'rovnomal natijasi.**

Sinaluvchilar asosan o'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilgan.

O'zbek oilalarida turmush qurish motivlarini o'rganish ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda anketa metodidan foydalaniolib, quyidagi natijalar qo'lga kiritildi: tadqiqotda qatnashgan respondentlarning **74,3%** oila qurishdan oldin nima uchun oila qurish kerakligi haqida mulohaza qilganliklari qayd etildi. Umumiy xolatda **55,4%** fuqarolar o'zidagi sifatlarni rivojlantirish maqsadida oila qurar ekanlar. Turmush qurish uchun ideal yosh, erkaklarda **25-26 yoshni**, ayollarda esa 21 yoshni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. SHuningdek, o'zbek oilalarining **64,8 %** turmush o'rtog'ini ota-

onasi yoki qarindoshlari tanlovgiga asosan tanlaydilar. O'zbeklarda oila qurish motivlari asosan beshta katta guruhni tashkil etadi: birinchi o'rinda urf-odatlar, ikkinchi o'rinda sevgi, uchinchi o'rinda farzandli bo'lish istagi, to'rtinchi o'rinda umumiy qarash va qiziqishlarning mavjudligi va beshinchi o'rinda maishiy turmush muammolarini xal etish motivlaridan iborat. Erkak respondentlarning **14,8 %** *i* farzandli bo'lish motivini uylanishga sabab deb bilsalar, ayollar bu motivni umuman sabab deb ko'rsatmaganlar.

Oila muhitida shaxsni shakllantirish jarayoni, baxtli bolalik davri bilan bog'liq bo'lib, bu oiladagi kuvonchli hamjixatlarning hamda ota-onalarning o'z bolalariga g'amxo'lik ko'rsata organiklari bilan aloqador. Ko'rinib turibdiki, psixolog er va xotin ulg'aygan oila haqida ham aniq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun, uchinchi qadam doirasida, er va xotin tarbiya topgan oilaning tarixi bilan tanishishiga to'g'ri keladi.

### XULOSA

Ajrashish arafasida turgan oilalarga psixokorreksiya o'tkazishdan asosiy maqsad – er va xotinning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, subyektiv voqelikdan kelib chiqib real vaziyatni tushuntirib, ularning psixologik resurslariga tayanib, konstruktiv maqsad shakllantirib, ularni yo'naltirishdan iborat. Bu jarayonda, psixolog egallagan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari tayanib er va xotinga (individual tarzda) ta'sir ko'rsatishi lozim bo'ladi. Er va xotinlar psixolog yoki bir-birlariga turli xil talablarni qo'yib, o'zлari uchun qulay bo'lgan vaziyat yaratishga harakat qiladilar. Ana shu vaziyatni yaratishga intilishlarini o'rganib, ularni to'rtta strategiyaga tarzida birlashtirish mumkin. Bular:

- vaziyatni o'zgartirish;
- vaziyatni o'zgartirish uchun o'zini o'zgartirish;
- vaziyatdan chikib ketish;
- mazkur vaziyatda xayotni yangi xususiyatlarini tanish.

Psixologik xizmat ko'rsatish amaliyotida, psixolog taraflarni manfaat va kutuвларини asosiy ta'sir ko'rsatuvchi "qurol" tarzida belgilab olishi lozim bo'ladi. SHundagina, u oilaviy munosabatlarni ijobiliyashtira olishi mumkin. Agarda, oilaviy munosabatlar ijobiy tus olsa, psixolog er va xotinlarning kognitiv; emotsiyal; o'zini tuta bilish kabi asosiy sohalariga ta'sir ko'rsata olgan bo'ladi.

Kognitiv soha (shaxsiy psixokorreksiya yetakchi, biografik- tushuntirishi):

- o'zining xulq-atvori, munosabati, reksiyasi sababini anglash;
- his-tuyg'u va xulq-atvor stereotiplarni anglash;
- psixologik omillar va somatik buzilishlar orasidagi bog'liqlikni anglash;
- mojarolar va ruxiy jarohatlovchi vaziyatlarni kelib chiqishida o'zining roli va javobgarligini his qilishi;

boshdan kechirishi sabablari va munosabat usullarini, o'zining munosabati shakillanishi sharoitlarini anglashini nazarda tutadi.

Emotsional soha:

- er va xotinni mutaxassis tomonidan emotsiyal qo'llab-quvvatlash;
- er va xotin tuyg'ularini anglab, uni yuzaga chiqarish;
- er va xotin holatini qabul qilib, emotsiyal munosabatlar usullarini o'zgartirish;

O'zini tuta bilish, xulq- atvor sohasi:

- er va xotinni bir-birlariga mos kelmaydigan munosabatlarini (reaksiyasini) korreksiyalash;
- er va xotinni xulq-atvordagi qusurlarni silliqlash.

Psixologik xizmat, hech bo'limganda nazariy va psicho-tuzatuvchi sifatida jamiyatning kichik bo'g'ini bo'l mish oila mexanizmining tarkibiy qismi – er va xotin "sozlash" bilan shug'ullanib, ularni birlashtiradi.Bundan ko'rish mumkinki oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning "model'i har bir oila uchun muhim amliy ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воронин В.Н., Ионцева М.В., Довжик Г.В. и др. Подходы к определению ижтимоийно-психологических механизмов // Вестник Университета (Государственный университет управления). - 2012. - № 2. - С. 263-273.
2. Самаров Р.С. «Авесто»: аёл ва оила масаласи // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 1999, 8-сон. 58-60 бетлар.
3. Самаров Р.С. Психологик ёрдам кўрсатиш такомуллашувининг концептуал жиҳатлари // Замонавий таълим. 1-2 сон, 2013. – Б. 64-70.

**PEDAGOGIKA**

4. Стефаненко Т.Г. Компоненты этнической идентичности: когнитивный, аффективный, поведенческий// Мир психологии.- 2004. - №3 (39). - С. 38-43.
5. Nuraliyeva D. M. The problems of developing social psychological mechanisms in the family //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 711-713.
6. Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna Psychological assistance to families on the verge of divorce 2021/10 "Экономика и социум" №10(89)
7. Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna. The concept of psychological service and its controversial issues in family. Stran/34-36 Proceedings of International Conference on Multidisciplinary Sciencesand Innovative Technologies Organized by Novateur Publications, India /2020/6/25.
8. Нуралиева, Д. М. (2020). КОНЦЕПЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬИ. ББК Ю953, 405.
9. Nuraliyeva D. M. Examining the orientation of women in the field of psychosocial service for the family and the empirical analysis of psychological qualities //International scientific and practical conference Cutting Edge-science Primedia E-launch page115-116. USA Conference Proceedings. – 2020. – Т. 6.
10. Nuraliyeva D. M. THE PROBLEMS OF DEVELOPING SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE FAMILY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 1. – С. 711-713.